

“NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNI BANDLIGINI TA’MINLASH VA JAMIYATGA INTEGRATSIYA QILISH”

*Samarqand Davlat Universiteti
Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi:
Amonova Dilnoza Shermat qizi
Abdurasulova Zulayho Xudaynazarovna
Imiy raxbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash va ularni jamiyatga to‘laonli integratsiya qilishning dolzarb jihatlari yoritilgan. Nogironlar uchun maxsus ish o‘rinlari yaratish, masofaviy ish imkoniyatlarini kengaytirish, kasb-hunarga o‘qitish kabi bandlikni ta’minlash yo‘llarini ko‘rsatadi.

Kalit so'zlar: nogironligi bo‘lgan shaxslar, bandlik, integratsiya, inklyuziya, ijtimoiy muhit, maxsus ish o‘rinlari, masofaviy ish, kasb-hunar, infratuzilma, teng imkoniyatlar, ijtimoiy himoya.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti inson huquqlarini to‘liq ta’minlash va barcha qatlam vakillarining teng huquqli ishtirokiga asoslanmoqda. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot sifati, ularning bandligini ta’minlash va ijtimoiy hayotga integratsiyasini kuchaytirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ularning mehnatga bo‘lgan salohiyatidan to‘liq foydalanish, ijtimoiy faolligini oshirish nafaqat ularning shaxsiy rivoji, balki jamiyatning umumiy farovonligiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, nogiron shaxslarning bandligi va jamiyatga integratsiyasi masalasiga kompleks yondashuv zarurdir.

Ijtimoiy davlatda har bir fuqaro, jamiyatning har bir a’zosi teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy hayotda to‘laonli ishtirok etishini ta’minlash har qanday rivojlangan jamiyatning muhim ijtimoiy va ma’naviy vazifalaridan biridir. Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha qator dasturlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, ularga ta’lim olish, ish bilan ta’minlanish, infratuzilmadan foydalanish va ijtimoiy xizmatlardan teng foydalana olish borasida hali ham muayyan to‘siqlar mavjud.¹

Bugungi kunda dunyo miqyosida nogironligi bo‘lgan insonlar soni ortib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, global miqyosda har yettinchi inson nogironlik bilan yashaydi. O‘zbekistonda esa rasmiy

¹ Karimova, N. (2021). Ijtimoiy himoya va bandlik masalalari. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti.. “Nogironlar uchun inklyuziv mehnat bozori: xalqaro tajriba va O‘zbekistonda amaliyot” – Ijtimoiy tadqiqotlar markazi tahliliy hisobot, 2022.

statistikaga ko'ra, 800 ming nafardan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar mavjud bo'lib, ularning aksariyati mehnatga layoqatli yoshdagilardir. Shunga qaramay, ularning ko'pchiligi bandlik tizimidan chetda qolmoqda. Bu esa, jamiyatda inklyuzivlik va teng imkoniyatlar prinsipi yetarli darajada qaror topmaganini ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlar tajribasida — masalan, Germaniya, Yaponiya yoki Shvetsiyada — nogironlar uchun maxsus kvotalar, imtiyozli ish joylari, moslashtirilgan infratuzilma va masofaviy mehnat tizimlari orqali ularning iqtisodiy hayotga faol jalb etilishi ta'minlanmoqda.

O'zbekiston ham bu borada muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, bandlik agentliklari orqali nogiron fuqarolarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy xizmatlarning kengaytirilishi — bularning barchasi ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun tashkilotlar tomonidan ish o'rinlarini zaxiralash tartibi **Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 965-sonli qarori** asosida amalga oshiriladi. Qarorga ko'ra, quyidagi bosqichlar mavjud: Kamida 20 nafar xodimlar soniga ega bo'lgan tashkilotlar har yili 1-avgustgacha kelgusi yil uchun nogironligi bo'lgan shaxslar uchun zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining eng kam sonini belgilaydi.²

Kamida 20 nafar xodimlar soniga ega bo'lgan tashkilotlar har yili 15-avgustgacha kelgusi yil uchun nogironligi bo'lgan shaxslar uchun zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining eng kam soni haqidagi ma'lumotlarni Tuman shahar kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlariga ma'lumotlarni taqdim etadilar. Har yili 1-sentabrgacha tuman shahar Kambag'allikni qisqartirish markazlari nogironligi bo'lgan shaxslar uchun zaxiralanadigan ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantiradi va Tuman shahar inson ijtimoiy xizmatlar markazlari bilan majburiy tartibda kelishadi. Shundan so'ng umumlashtirilgan takliflarni tuman shahar hokimliklariga tasdiqlash uchun kiritadi. Tashkilotlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ish o'rinlarini zaxiralash jarayonida ishlarning xususiyati nogironligi bo'lgan shaxslarga mos kelishini hisobga olishlari kerak bo'ladi.

Bunda Tuman shahar kambag'allikni qisqartirish bo'limlari yil boshlanishidan kamida 5 oy oldin o'z hududidagi Tibbiy ijtimoiy ekspert komissiyalari (TIEK) ga nogironligi

² O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, 2020 yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" (2021-yil).

bo'lgan shaxslarning yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturlari to'g'risida ma'lumotlarni oladi. Ya'ni nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ish o'rinlari zaxiralanishida ularning mehnat qobiliyatlari hisobga olinishi ko'zda tutilgan. Agar tashkilotda zaxiraga qo'yilgan ish o'rinlari qisqarsa tashkilot bu haqida bandlik organlariga axborot taqdim etadi. Zaxiralangan ish o'rinlariga ishga joylashtirilgan shaxslarning ish o'rinlari saqlab qolinadi agar ushbu tashkilot zaxiraga qo'yishi belgilangan ish o'rinlaridan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga olgan bo'lsa mazkur ortiqcha ish o'rinlari soni qisqarishi mumkin. Agar zaxiraga qo'yilgan ish o'rniga nogironligi bo'lgan shaxs ishga qabul qilinsa va keyinchalik ushbu shaxs bilan mehnat shartnomasi tugatilsa, tashkilot 10 kun muddatda zaxira ish o'rnini bo'shaganligi to'g'risida bandlik organlariga xabar berishi shart.

Xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo'lgan tashkilotlar tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 3 foizdan kam bo'lmagan ish o'rinlarini zaxiralashdan tashqari aholining boshqa ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlari uchun ham ish o'rinlarini zaxiralaydi. Ish o'rinlarini zaxiraga qo'yishi belgilangan tashkilotlar yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami xususan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ish o'rinlarining kamida 25 foizini zaxiralashi shart. Ish o'rinlarining qolgan qismi tashkilotlar tomonidan yilning 1-choragi yakuniga qadar zaxiralanishi shart. Ish o'rinlarini zaxiralagan tashkilotlar har oyning yakunlari bo'yicha har oyning beshinchi kunigacha ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni xususan nogironligi bo'lgan shaxslarni zaxiralangan ish o'rinlariga ishga joylashtirish bo'yicha mehnat organlariga hisobotlar taqdim etadi.

Nogironligi bor shaxslarni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish va ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlash. Jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ular uchun qulay loyiha va dasturlar ishlab chiqish zarur.³

. Asosiy yo'nalishlar

- Masofaviy ish o'rinlari yaratish – IT, dizayn, tarjima, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda.
- Maxsus sharoitlar bilan ta'minlangan ish joylari – jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay ish joylarini tashkil etish.
- Kasbiy tayyorgarlik va onlayn malaka oshirish kurslari – nogironligi bor shaxslarni zamonaviy kasblarga o'rgatish.
- Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish – nogironligi bor shaxslar uchun maxsus ish o'rinlari yaratadigan kichik hajmdagi ishlab chiqarish korxonalar tashkil etish.
- Ish beruvchilar bilan hamkorlik – kvotalar, imtiyozlar va rag'batlantirish orqali ish beruvchilarni jalb qilish.

³ www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti.

3. Amalga oshirish bosqichlari

- Tahlil va rejalashtirish – Nogironligi bor shaxslarni ijtimoiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, kasb ko'nikmalarini shakillantirish uchun MONO markazlar qoshida imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus kurslarni tashkil qilish.
- Hamkorlik o'rnatish – Davlat idoralari, xususiy sektor va NNTlar bilan kelishuvlar tuzish.
- Pilot loyihalarni ishga tushirish – Nogironligi bor shaxslarni ishga olgan xususiy sektorni qullab quvvatlash uchun subsidiyalar ajratish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish.
- Moliyalashtirish – Davlat grantlari, investorlar va xususiy sektor sarmoyalarini jalb qilish.
- Monitoring va takomillashtirish – Loyiha samaradorligini har chirakda baholash va kerakli o'zgarishlarni kiritish.

4. Kutilyotgan natijalar

- Nogironligi bor shaxslarning ish bilan ta'minlanish darajasi oshadi.
- Ularning iqtisodiy va ijtimoiy faolligi kuchayadi.
- Jamiyatda inklyuziv muhit shakllanadi.

Ish beruvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash va ularni jamiyatga integratsiya qilish — bu nafaqat insonparvarlik, balki ijtimoiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishning muhim omilidir. Ularning mehnatga jalb etilishi, jamiyatda teng huquqli ishtirokini ta'minlash orqali nafaqat ularning hayot sifati oshadi, balki jamiyatning o'zi ham yanada kuchli, adolatli va bag'rikeng bo'lib shakllanadi. Yurtimizda bu borada muhim qonunchilik asoslari yaratilmoqda, amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud muammolarni bartaraf etish uchun davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar, xususiy sektor va jamiyatning har bir a'zosi o'z mas'uliyatini chuqur his etib, hamkorlikda harakat qilishi zarur. Nogiron shaxslarni to'liq qo'llab-quvvatlagan jamiyatgina chinakam insoniylik tamoyillariga sodiq qolgan, taraqqiyot sari dadil intilayotgan jamiyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, 2020 yil
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" (2021-yil).
- 3 Karimova, N. (2021). Ijtimoiy himoya va bandlik masalalari. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
- 4 "Nogironlar uchun inklyuziv mehnat bozori: xalqaro tajriba va O'zbekistonda amaliyot" – Ijtimoiy tadqiqotlar markazi tahliliy hisobot, 2022.
- 5 www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti.
- 6 www.un.org – Birlashgan Millatlar Tashkiloti rasmiy veb-sayti.